



FALSAFA TARIXIDA INTUITSIYAGA MUNOSABATNING TARIXIY- NAZARIY TAHLILI

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi

Xolova Umida Umedovna

*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti, falsafa yo'nalishi 3-bosqich
talabasi*

Istatpulatova Aziza Shuxrat qizi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafa tarixida intuitsiya tushunchasining mazmuni, shakllanishi, intuitsiyaning namoyon bo'lishida tushlarning o'rni, uning falsafiy bilishdagi ahamiyati va turli davr mutafakkirlari tomonidan berilgan fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Intuitsiya, qalb va aql, tasavvur, tafakkur, sezgi, ichki idrok, g'oya, Tasavvuf, J. Adamar, Leybnits, B. Rassel, Spinoza, Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumi, Rene Dekart, Geraklit, Platon, F. Akvinskiy.

Kirish. Yangi bilimni egallashda mantiqiy tafakkur, uning qonunlari, tushunchalarning shakllanish usullari va yo'llari katta ahamiyatga ega. Lekin bilish faoliyati tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'p hollarda ilmiy muammolarni hal qilishda oddiy mantiqning imkoniyatlari kamlik qiladi. Yangi axborotning hosil bo'lish jarayonini tafakkurni induktiv va deduktiv tushunishga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu jarayonda bilishga yangi kuch, imkon va harakat yo'nalishini beruvchi intuitsiya muhim o'rin egallaydi. "Intuitsiya nima?" degan savolga javob sifatida shuni aytish joizki, intuitsiya bu - ko'zlarsiz ko'rish, fikrlarsiz bilishdir. U ko'pincha tahlil qilinmagan, ammo ishonchli bo'lgan tuyg'u sifatida namoyon bo'ladi. Insonning bunday qobiliyati borligini ko'plab olimlar e'tirof etishadi va shu bilan birga, falsafa tarixida intuitsiya va aql o'rtasidagi munosabat ham doimiy ravishda muhokama markazida bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, xorijiy tildagi adabiyotlarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Intuitsiya (lot. Intuitio - sinchiklab qarayman) - bu dalillarni tekshirmasdan, bevosita fahm-farosat orqali biror narsani tushunish yoki anglash qobiliyatidir. Bu "ichki kompas" bo'lib, insonni qanday harakat qilishi, qayerga borishi yoki qanday qaror qabul qilish to'g'risida shubhasiz his qilishga yordam beradi.



Qadimgi falsafiy qarashlarda intuitsiya bilishning alohida shakli deb hisoblangan. Masalan: Aristotelning sillogizmlar g'oyasi, R. Dekartning falsafa va matematikani birlashtirish g'oyasi, I. Kantning antinomiylar g'oyasi va ko'plab boshqa g'oyalarni, odatda, intuitsiya bilan bog'lashadi. B. Rassel ba'zan o'zini ijodiy ishga zo'rma-zo'raki majburlashlar hechqanday natija bermagani va o'zida g'oyalarning yetilishinichidam bilan kutish zarurligini anglab yetganligini ta'kidlagan edi.¹ U shunday deb yozgan edi: -“ Men kitob ustida ishlayotganimda, uni deyarli har kuni ko'raman.

Yangi g'oyalar paydo bo'ladimi yoki eskilari jonlanadimi, buni bilmadimu, ko'p hollarda men butun boshli sahifalarni ko'raman va uyquda ularni o'qishim ham mumkin². Bunda Rassel shuni aytmoqchiki, ijodiy va fikriy jarayonlar faqat uyg'oq vaqt bilan cheklanmaydi, balki, ularni ongning turli holatlarida ham sezish va boshdan o'tkazish mumkin, ya'ni bu holat inson aqli va intuitsiyasi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni anglatadi. Intuitsiya tushunchasining mazmuni juda keng, hamma vaqt ham odamlar “intuitsiya” deb ataydigan hodisalar intuitsiya bo'lavermaydi. Chunki bizning tafakkurimizda ko'plab xulosalar borki, ularga asos bo'ladigan hukm aniq holda ifodalanmaydi, bunday xulosalarning natijasi kutilmagan bo'ladi, ba'zilar o'ylaganidek intuitiv bo'lavermaydi. Tafakkur-bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir.³ Tafakkurning intuitiv ishlashi ongosti sohasida sodir bo'lgani uchun, hatto, subyektning muammodan «qutulgan» holida ham davom etadi, shuning uchun vaqtinchalik qutulish ham foydali bo'lishi mumkin. J. Adamar, masalan, biror-bir jiddiy muammo ustidagi ish nihoyasidan so'ng, boshqasi ustida bosh qotirishga shoshilmaslik, biroz vaqt o'tishini maslahat bergan. «Olim, — degan edi u, — bir vaqtning o'zida parallel ravishda, vaqti-vaqti bilan biridan ikkinchisiga o'tgan holda, tafakkurning ongosti mexanizmlarini faollashtirish uchun bir necha muammo ustida ishlashi mumkin». Bu maslahatga D. Poya qo'shimcha qilgan: «Yaxshisi hal etilmagan muammoni, ozgina bo'lsa-da, muvaffaqiyatni sezmasdan orqaga surmaslik kerak, kichkina bo'lsa ham, uning biron joyi hal qilinganini ma'qul. Masalani hal etishni tugatmasdan oldin, uning biron-bir xususiy tomoni yechimini o'zimizga aniqlab olishimiz zarur». Falsafani fan sifatida shakllantirgan antik davr olimlari intuitsiya muammosi bora- sida bahs-munozaralar olib borishgan.

Masalan: “Geraklit” qarashlarida intuitsiya materiyaning abadiy o'zgarishi

¹ Qiyom Nazarov. “ Bilish falsafasi” (gnoseologiya)-Toshkent universitet. 2005

² Б. Рассел. "Интуиция и научное творчество" - М. 1999. С.17

³ Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-Toshkent: Noshir, 2009



jarayoniga bog'liqligi tushuntirilgan.⁴ "Platon"ning fikricha, —borliqning yaxlit, butun manzarasi sinkretik kuzatish yoki intuitiv bilish vositasida namoyon bo'ladi.⁵ "Aristotel" intellektual intuitsiya konsepsiyasini ya- ratdi.⁶ "A.Avgustin" va "F.Akvinskiy" asarlarida intuitsiya ilohiy xususiyatga ega bo'lgan hamda ruhning o'zini ochib berish qobiliyati sifatida talqin etilgan.⁷ Qadimgi Sharq falsafasida intuitsiya payg'ambarlarga, avliyo zotlarga xos bo'lgan maxsus bilish usuli sifatida talqin etilgan." Dekart "ta'limotida bilishning birdan-bir to'g'ri yo'li ratsionalizmga asoslangan deduktiv usuldir. U din va sxolastik falsafa o'rniga kishi aqlini, ilmiy bilimni yuqori qo'yadi. Dekartning fikricha, isbotning deduktiv shakli aksiomalarga asoslanadi, aksiomalar esa, hech qanday isbotsiz sof intuitiv tarzda anglanadi."Spinoza" intuitsiyani bilishning "uchinchi xili", narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblagan. XX asr falsafasining ayrim vakillari (Bergson, Freyd) intuitsiyani butun ijodiy faoliyatni belgilovchi yashirin, qorong'u, ongsiz, boshlang'ich ijod, deb qaraydi. Bu bilan ular intuitsiyani intellektga qarama-qarshi qo'yib, narsalar mohiyatiga kirib borish aslo mumkin emas, degan g'oyani ilgari suradi.⁸ Masalan: O'rta Osiyolik muta-fakkir —"Abu Ali Ibn Sino" o'z mulohazalarida intuitsiya belgilarini hamma insonlardan topish mumkinligini, biroq uning darajasi hammadada har xil bo'lishini ta'kidlagan.⁹ Sharqning yana bir buyuk allomasi Imom G'azzoliy intuitsiyani sir, ya'ni yashirin hodisa deb biladi va sirga qo'shilish baxtiga faqat tanlanganlar mu-yassar bo'lishini yozib qoldirgan.¹⁰ So'fiylik ta'limotiga ko'ra, intuitsiyaga yaqinlashish uchun ma'naviy yuksalish, dunyoning ilohiy ijod sifatidagi buyukligini bilish, o'z ruhiyatining tubiga kirib borish va haqiqiy e'tiqodga ega bo'lish bo'yi-cha ulkan ishlarni amalga oshirish kerak. "A.Erkayev" —Tasavvufda intuitsiya haqiqatni, voqelikning yashirin jihatlarini, sirli aloqalarini qalb ko'zi bilan ko'rish deb atasa, intuitiv favqulodda qaror qabil qilish va unga asoslangan faoliyat esa —Allohg'a tavakkal qilish deb talqin etadi.¹¹ "Jaloliddin Rumi" intuitsiyani, avvalo, insonni ko'zini ochishga va ochilgan ko'zlar bilan o'z mohiyatiga teran nazar tashlamoqdir, deydi.¹²

Yangi davr faylasufi — "R. Dekart" intuitsiyaning bilishdagi muhim rolini bilim

⁴ Гераклит Эфесский. – М.: Ад Маргинем Пресс, 2012. – С. 89

⁵ Платон. Собрание сочинений в 4 т. – М.: Мысль, 1990. Т. 1. – 862

⁶ Аристотель. Соч. В 4-х т. – М.: Мысль, 1983. Т. 4. – 830 с

⁷ Foma Akvinskiy "Ilohiyot summasi". Kiyev. 2007. 835-bet

⁸ Oyina.uz sayti.

⁹ Ibn Sino. Tanlangan falsafiy asarlar. Moskva 1980.

¹⁰ Imom G'azzoliy. Iymon ilmlarining tiriltirilishi. -Moskva.1980. 79-bet

¹¹ Abdurahim Erkayev. "Ilohiy tuyg'ular tutashuvi"/" Tafakkur " jurnali..-Tosh.2019. 3-son

¹² Jaloliddin Rumi. "Ichingdagi ichingdadur" T. ;Yangi asr avlodi,2019, B-9



olishning oqilona va irratsional usullari nisbatida aniqladi. “Spinoza” va “Lokk” qarashlariga koʻra bilimlarning ishonchlisi bu intuitsiyadir hamda intuitiv bilimlar eng koʻp tan olinishi kerak.¹³ “Leybnits”ning taʼkidlashicha, birlamchi ratsional haqiqatlar intuitivdir.¹⁴

“Intuitsiyaga Islom nuqtayi nazaridan yondashadigan boʻlsak, islom olamining bu-yuk mutafakkirlaridan “Imom Gʻazzoliy”- “ Mukoshafat-ul-qulub” asarida shunday deydi:¹⁵ “ Allohdan qoʻrqqan odam qalbida musulmon qardoshlariga dushman-lik his qilmaydi: yolgʻon, boʻhton va hasad qilish kabi gʻayriinsoniy tuygʻularni qalbidan yoʻq qiladi. Chunki hasad kishining goʻzal amallarini mahv etadi.

Ey oʻquvchi, bilki, hasad qalblarga joylashgan va jamiyat hayotida katta zararlarga yoʻl ochuvchi yomon bir kasallikdir. Qalbdagi xastaliklar, yaʼni yomon tuygʻular, yomon feʼllar faqat ilm va amal bilan davolanishi mumkin. Albatta qalb

oʻzining tabiiyligi (yaʼni, fitriy holati) bilan maʼlumotlarning haqiqa-tini qabul qilish uchun tayyor holatda boʻladi. Lekin qalbga tushadigan ilmlar ham aqliy va sharʼiyga boʻlinadi. Buning aqliysi zaruriy va kasb qilib olinadigan narsa-lardan iborat. Kasb qilib olinadigani ham dunyoviy va uxroviyga boʻlinadi. Ammo aqliysi, deganda aqlning tabiiyligi taqozo qiladigan, taqlid va eshitish bilan topil- maydigan narsani eʼtiborga olamiz. Zaruriyga boʻlinadigani esa paydo boʻlgan zaruriy ilmning qaerdan va qanday hosil boʻlganini bilolmaydi. Bu ilm insonning bir shaxs bir vaqtning oʻzida ikki joyda boʻlmasligini yoki yana bir narsa bir payt-da ham yangi, ham eski yoki bir holatning oʻzida ham bor, ham yoʻq boʻlmasligini bilishiga oʻxshaydi. Chunki bu shunday ilmki, inson yoshligidan oʻzini mana shu ilmlarni biladigan qilib yaratilgan holda topadi. Bu ilm qachon va qaerdan hosil boʻlganini bilmaydi. Yaʼni, buni bilishiga yaqin biror sababni bilmaydi. Lekin uni yaratgan va unga yoʻl koʻrsatgan, hatto kasb qilib qoʻlga kiritiladigan ilmlarga yoʻl koʻrsatgan albatta Alloh ekanligi hargiz unga maxfiy boʻlmaydi.

Xulosa qilish mumkinki, Intuitsiya- qalban yoki ong osti orqali, dalilsiz va tez sezib bilishdir. Gohida biror muammo ustida rosa bosh qotirasiz-u, lekin hal qilish yoʻlini topa olmaysiz. Oʻylab-oʻylab oxiri zerikasiz. Umuman bu muammo haqida oʻylamagan paytingiz yechimi oʻz-oʻzidan miyangizga yarq etib kelib qoladi. Bu holat fanda “intuitsiya” deb yuritiladi. Falsafa, sanʼat, ilm yoki boshqa istalgan sohadagi kashfiyot intuitsiya boshqichidan oʻtadi. Shoir yoki yozuvchiga ilhom kelishi ham aynan intuitsiya bilan bogʻliq. Ijodkor ongida anchadan buyon toʻplanib turgan fikr

¹³ Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob.Toshkent.2004

¹⁴ Лейбниц Г.В. Монадология. Соч. В 4 т. Т. 1. – М., 1982. – 418 с

¹⁵ Imom Gʻazzoliy “ Mukoshafat ul-qulub” asari



“etiladi” va qalbga ta’sir qilib tuyg‘u uyg‘otadi. Xuddi shu jarayon ijodda ilhom deyiladi. Intuitsiya — bizning ruhiyatimiz va qalbimizni idrokimiz bilan bog‘lovchi vosita. U tafakkur va mantiq doirasidan ancha olib ketadi. Intuitsiya jarayonida nafaqat tasavvur, balki timsol, majoziy belgilar hamda insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan barcha g‘ayrioddiy imkoniyatlar ishtirok etadi. Shu bois intuitsiya imkoniyat borasida bizga ancha tanish va tushunarli bo‘lgan boshqa idrok vositalaridan ancha ustun turadi. Shu o‘rinda shuni ham aytish joizki, albatta ilmning o‘rni qalb, ya’ni hamma a’zolarining tadbirini qilib turuvchi ilohiy ne’matdir. Butun a’zolar qalbga itoatda bo‘lib, uning xizmatini qiladilar. Qalb ma’lumotlarga bog‘liqlikda turli-tuman narsalarning suratlariga bog‘liq oyna-ga o‘xshaydi. Albatta turli-tuman narsalar bir suratdir va o‘sha suratning misli oy-naga muhrlanib, unda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, har bir narsaning haqiqati mavjud bo‘lib, o‘sha haqiqatning ham surati bor. Bu surat qalb oynasida aks etib, unda ravshanlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Qiyom Nazarov. “Bilish falsafasi” kitob. Tosh.2005
2. Erniyozov O‘rozboy “ Ontologiya, gnoseologiya,mantiq”. Toshkent. 2024
- 3.Imom G‘azzoliy “Mukoshafat-ul-qulub” Toshkent.2002.
- 4.“Falsafa va tasavvuf” BuxDU. 2008
- 5.Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob.Toshkent.2004
6. Jaloliddin Rumiy.”Ichingdagi ichingdadur”T. ;Yangi asr avlodi,2019, B-9
- 7.Abdurahim Erkayev. “Ilohiy tuyg‘ular tutashuvi”//” Tafakkur jurnali..Tosh.2019. 3-son
- 8.Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-Toshkent: Noshir,2009
9. Ibn Sino.Tanlangan falsafiy asarlar. Moskva 1980.
10. Imom G‘azzoliy. Iymon ilmlarining tiriltirilishi.-Moskva.1980. 79-bet